

UZOQ MUDDAT STATSIONAR SHAROITDA BO'LGAN BOLALARNING IJTIMOIY-KOMMUNIKATIV KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA GURUHLI MASHG'ULOTLARNING AHAMIYATI

Baubekova Aksungul Polatovna

*Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi "Mehrli maktab" davlat ta'lim
muassasasi Qoraqalpog'iston Respublikasi filiali psixologi*

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 22.03.2026

Revised: 23.03.2026

Accepted: 24.03.2026

KALIT SO'ZLAR:

*gospital pedagogika,
kommunikativ
ko'nikmalar, ijtimoiy
izolyatsiya, guruh
mashg'ulotlar, Mehrli
maktab, ijtimoiy
moslashuv, statsionar
sharoit.*

Ushbu maqolada uzoq muddat statsionar sharoitda davolanayotgan bolalarning ijtimoiy-kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirishda guruhli mashg'ulotlarning o'rni va ahamiyati tahlil qilingan. Kuzatuvlar davomida gospital pedagogikaning o'ziga xos xususiyatlari, onkologik va gematologik xastalikka chalingan bolalarda uchraydigan ijtimoiy izolyatsiya muammolari hamda ularni bartaraf etishda jamoaviy yondashuvning samaradorligi o'rganilgan. Maqolada o'quvchiga individual yondashgan holda interfaol guruhli mashg'ulotlarning amaliy natijalari bayon etilgan bo'lib, natijalar bunday mashg'ulotlar bolalarning psixo-emotsional holatini yaxshilash va ijtimoiy rehabilitatsiyasini tezlashtirishda asosiy omil ekanligini tasdiqlaydi.

Kirish. So'ngi yillarda mamlakatimizda ta'lim va sog'liqni saqlash tizimini tubdan isloh qilish, xususan, bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida ulkan ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan "Inson qadri uchun" tamoyili asosida tibbiyot muassasalarining moddiy-texnik bazasi yangilanib, zamonaviy davolash usullari amaliyotga joriy etilmoqda. Ayniqsa, og'ir xastalikka chalingan bolalarning sifatli ta'lim olishi va ijtimoiy moslashuvi uchun sharoit yaratish

maqsadida tashkil etilgan “Mehrli maktab” loyihasi bu boradagi gumanistik islohotlarning amaliy ifodasi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Biroq, amalga oshirilayotgan tizimli ishlarga qaramay, bolalar o‘rtasida onkologik va gematologik kasalliklarning uchrash darajasi hamon dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda. Tibbiy statistika tahlillari onkologik xastaliklar nafaqat jismoniy muammo, balki bolaning uzoq vaqt davomida jamiyatdan uzilib qolishiga ham sabab bo‘lmoqda. Bunday sharoitda uzoq muddatli statsionar davolanishda bo‘lgan bolalarning ruhiy tushkunlikka tushib qolmasligi va muloqat ko‘nikmalarini saqlab qolish uchun gospital ta‘lim metodlaridan samarali foydalanish hayotiy zaruriyatga aylanmoqda.

Gospital pedagogika – tibbiy muassasalarda uzoq muddatli muolajalar olayotgan bolalar va o‘smirlarning ta‘lim jarayoni uzluksizligini ta‘minlashga yo‘naltirilgan pedagogika fanining maxsus tarmog‘idir [4]. Ushbu soha nafaqat akademik bilim berish, balki og‘ir xastalik bilan kurashayotgan bolaning hayot sifatini yaxshilash va uning jamiyatdan uzilib qolmasligini kafolatlashni maqsad qiladi. Fikrimizcha, gospital pedagogika an‘anaviy ta‘limdan farqli o‘laroq, bolaning emotsional holatini birinchi o‘ringa qo‘yishi bilan ajralib turadi va bu yerda o‘qituvchi ham pedagog, ham psixolog vazifasini bajaradi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonunida har bir shaxsning, uning sog‘lig‘i holatidan qat‘i nazar, ta‘lim olish huquqi va davlat tomonidan bu huquqning kafolatlanishi belgilangan [1]. Ushbu huquqiy asos gospital sharoitdagi bolalarning ta‘lim tizimidan to‘liq bahramand bo‘lishini ta‘minlaydi. Shu bilan birga, gospital muhitda ta‘limni tashkil etish nafaqat bilim berish, balki bolaning uzoq muddatli davolanish davridagi ijtimoiy uzilishini bartaraf etuvchi muhim ijtimoiy-pedagogik omil bo‘lib xizmat qiladi.

Uzoq muddatli davolanish sharoitidagi bolalarning ta‘lim olish va ijtimoiy moslashuv huquqlarini ta‘minlash bugungi kunda gospital pedagogikaning ustuvor vazifasidir [5]. Kasallik tufayli yuzaga keladigan uzoq muddatli statsionar sharoit bolalarning ijtimoiy muhitdan uzilib qolishiga sabab bo‘ladi, bu esa rivojlanishning sekinlashishiga sabab bo‘ladi. Shaxsiy qarashimizga ko‘ra, pedagogik qo‘llab-quvvatlashning asosiy nuqtasi bolaning kasalligi emas, balki uning sog‘lom imkoniyatlari va ijtimoiy ehtiyojlariga qaratilishi lozim.

Gospital ta‘lim sharoitida o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etish o‘zining murakkabligi va o‘ziga xosligi bilan an‘anaviy maktab tizimidan farq qiladi. Shu sababli, o‘qitish tizimini ishlab chiqishda nafaqat pedagogik tamoyillarga, balki tibbiy-psixologik omillarga ham alohida e‘tibor qaratildi. Kuzatuvimiz davomida bolalarning kasallik darajasi, ulardagi emotsional tushkunlik holatlari va ijtimoiy muloqotga bo‘lgan ehtiyojlari kompleks ravishda

o'rganildi. Bu o'rganishlar natijasida biz bolaning jismoniy muolajalariga xalaqit bermaydigan, aksincha, unga ruhan kuch bag'ishlaydigan o'qitish usullarini tanlab oldik. Bunda asosiy e'tibor o'quvchiga shunchaki ma'lumot berishga emas, balki u bilan do'stona muloqot o'rnatishga qaratildi. Ya'ni, bola o'zini darsda faqat «tinglovchi» emas, balki o'z fikriga ega bo'lgan va guruh hayotida faol qatnashadigan teng huquqli shaxs sifatida his qilishi ta'minlandi. Quyida ushbu amaliyot doirasida qo'llanilgan asosiy metodik vositalar va ularni hospital sharoitga moslashtirish usullari batafsil bayon etiladi.

Uzoq muddat statsionar sharoitda bo'lish bolalarning ruhiy va ijtimoiy rivojlanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatib, «ijtimoiy izolyatsiya» va muloqot tanqisligini yuzaga keltiradi. Ushbu muammoni bartaraf etish uchun hospital pedagogikada interfaol guruh mashg'ulotlar va art-terapiya asosiy metod sifatida tanlab olindi. Shuningdek, metodlarni tanlashda bolaning charchash darajasi va dori-darmon qabul qilish grafigini inobatga olish, mashg'ulotlarni moslashuvchan va qisqa muddatli qilib loyihalash o'ta muhimdir. Shaxsning ijtimoiy rivojlanishi ijtimoiylashuv va individuallashuv kabi ikki o'zaro bog'liq yo'nalishda amalga oshishi sababli, hospital sharoitda guruh yondashuv muhim yondashuvlardan biri sifatida qaraladi. [2]. Guruh mashg'ulotlar davomida o'quvchiga individual yondashgan holda rol o'yinlar va jamoaviy muhokamalar orqali bolaning kommunikativ kompetensiyalari faollashtiriladi. Fikrimizcha, har bir guruh mashg'ulotda bolaning o'z fikrini erkin bayon etishi va boshqalarni tinglay olishi uchun maxsus muloqot maydonchalari yaratilishi pedagog-psixologning asosiy metodik vazifasi hisoblanadi. Bunday metodlar har bir bolaning psixofizik holatini hisobga olgan holda guruhlarini to'g'ri shakllantirish imkonini beradi. Bizningcha, bunday individual yondashuv guruh mashg'ulotlar samaradorligini oshirib, bolaning o'zini guruhda xavfsiz va qulay his qilishini ta'minlaydi.

Amaliy tajribamiz davomida o'tkazilgan amaliy mashg'ulotlar va kuzatuvlar uzoq muddat statsionar sharoitda davolanayotgan bolalarning emotsional-irodaviy sohasida sezilarli ijobiy dinamika mavjudligini ko'rsatdi. Guruh mashg'ulotlar tizimining joriy etilishi natijasida bolalarda nafaqat bilim o'zlashtirish darajasi, balki eng asosiysi – ijtimoiy muloqotga kirishish ehtiyoji qayta tiklandi. O'tkazilgan mashg'ulotlar va muloqotlar shuni tasdiqladiki, maxsus yaratilgan mehr-shafqatli muhit bolani kasallik haqidagi og'riqli o'ylardan chalg'itadi va uning o'ziga bo'lgan ishonchini qaytaruvchi asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Jamoaviy ish shakllari bolalar ruhiyatiga xuddi shifobaxsh malhamdek ta'sir ko'rsatdi. Xususan, birgalikdagi ijodiy jarayonlar va o'zaro fikr almashish mashqlari natijasida bolalarning tengdoshlari orasida o'zini erkin his qilishi va atrofdagilarga moslashish ko'rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilandi. Quyida izlanishlarimiz davomida

aniqlangan aniq natijalar hamda gospital sharoitda o'zaro muloqot ko'nikmalarini shakllantirishning ruhiy-pedagogik tahlili batafsil bayon etiladi. Gospital pedagogikada muhit – tadqiqot va kashfiyotlar maskani sifatida namoyon bo'lishi bolaning o'zi uchun yangi narsalarni kashf etishi va o'z muvaffaqiyatlarini namoyon qila olishi uchun xizmat qiladi. Bolalarning shaxsiy ko'rgazmalarini tashkil etish ularda muvaffaqiyat hissini uyg'otadi va ijtimoiy maqomini mustahkamlaydi. Bizningcha, guruh oldida o'z ishini taqdim etgan bola o'zining "bemor" statusidan "ijodkor" yoki "o'quvchi" statusiga o'tadi, bu esa kommunikativ rivojlanishdagi eng yuqori natijadir. Guruhli mashg'ulotlar jarayonida bola o'z tengdoshlari bilan muloqotga kirishish, fikr almashish va hamkorlikda ishlash orqali ijtimoiy-kommunikativ ko'nikmalarini tiklaydi. Kuzatuvlarimizga ko'ra, jamoaviy mashg'ulotlar, jamoaviy o'yinlarga qatnashgan bolalarda tushkunlik darajasi 30-40 foizga kamayib, ularning ijtimoiy faolligi oshadi. Guruhli faoliyat jarayonida shakllanadigan ijobiy emotsional muhit bolaning umumiy terapevtik holatiga samarali ta'sir ko'rsatib sog'ayish dinamikasini tezlashtiruvchi muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Bizning fikrimizcha bunday jamoaviy ishlar nafaqat ruhiy tetiklik bag'ishlaydi, balki tiklanish jarayonida o'ziga xos muhim omil hisoblanadi. Gospital sharoitda tashkil etilgan muloqot muhiti bolaning sog'lom tengdoshlari bilan qayta integratsiyalashuviga zamin yaratadi [2]. Kuzatuvlarimiz shuni ko'rsatadiki, muntazam guruhli mashg'ulotlarda qatnashgan bolalar maktabga qaytganda adaptatsiya jarayonini osonroq o'tkazadilar. Shaxsiy kuzatuvlarimizga ko'ra, gospital sharoitda shakllangan do'stona guruh tushunchasi bolaga o'z xastaligi bilan kurashishda qo'shimcha motivatsiya va ijtimoiy tayanch beradi.

Xulosa qilib aytganda, uzoq muddat davolanayotgan bolalar uchun gospital ta'lim shunchaki dars o'tish emas, balki ularning ijtimoiy va ruhiy tiklanishiga xizmat qiluvchi strategik jarayondir. Guruhli mashg'ulotlar bolalarning muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishda va ularni ijtimoiy yakkalanishdan qutqarishda eng samarali mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Bizningcha, gospital pedagogikaning kelajagi aynan mana shunday integrallashgan va jamoaviy yondashuvlarga asoslangan metodikalarni takomillashtirish bilan bog'liq. Gospital pedagogika tizimida guruhli ishlarni muntazam yo'lga qo'yish bolalarning to'laqonli shaxs bo'lib rivojlanishini ta'minlashda muhim o'rin tutadi [3]. Bu jarayon bolaning ijtimoiy reabilitatsiyasini ta'minlash bilan birga, uning psixo-emotsional barqarorligini ham mustahkamlaydi. Fikrimizcha, gospital o'qituvchilari uchun moslashtirilgan guruhli mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha maxsus metodik qo'llanmalar ishlab chiqish gospital maktablar samaradorligini yanada oshiradi. Shunday qilib, shifoxona sharoitida o'quvchilarni kichik guruhlariga birlashtirish orqali biz ularga nafaqat bilim

beramiz, balki ularning yashashga bo'lgan ishtiyoqini va muloqotga bo'lgan tabiiy huquqlarini tiklaymiz. Gospital ta'lim – bu mehr va bilimning uyg'unligi bo'lib, har bir guruhli mashg'ulot bola hayotiga yangi ranglar olib kirishi shart.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. Axmedov A.A. Ijtimoiy pedagogika: o'quv qo'llanma. – Buxoro: Kamolot nashriyoti, 2023. – 244 b.
3. Гусев И.А., Долуев И.Ю., Зорина Е.С., Соловьев Д.А. Карта индивидуальных особых потребностей обучающихся // Перспективы науки и образования. – 2024. – № 24-02. – С. 1-15.
4. Долуев И.Ю., Зорина Е.С., Курикалова Н.М., Лоскутов А.Ф. Госпитальная педагогика: проблемы и перспективы развития в современном обществе // Российский психологический журнал. – 2025. – № 22(2). – С. 170-190.
5. Шариков С.В. Педагогическая поддержка образовательных возможностей детей, находящихся на длительном лечении в медицинских стационарах // Альманах № 40. – М., 2020. – С. 1-5.